

O'RTA ASRLAR ILM-MA'RIFAT HAYOTI

Shukrulloev Suhrob Azamat o'g'li

DTPI Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti talabasi.

Tel: +998931261781

shukrulloevsuhrob4@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada o'rta osiyoda faoliyat yuritgan olimlar haqida ma'lumotlar berilgan bo'lib hisoblanadi, shuningdek manbalar tahlili asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: "Donishmandlar uyi", S.P.Tolstov, Buxoro tarixi, Ibrohim Ogoh Chubukchining, "Jome ut-tavorix", Afshona qishlog'i.

Arablar Xuroson, Movarounnahr va Xorazmni bosib olgach, hamma yerda bo'lgani kabi o'lkamizda ham qattiqqo'llik bilan yurtni arablashtirish siyosatini olib bordilar. Bu borada islom dini, Qur'oni karimdan ustalik bilan foydalanildi. O'lkada islom dini bilan bir qatorda arab tili, arab alifbosi ham joriy qilindi. Arab tili-davlat tili, islom dini tili va fan tili darajasida ko'tarildi. Mahalliy tilda yozilgan asarlar yo'q qilindi, yerli bilimdonlar quvg'in ostiga olindi. Bu paytlarda Bag'dod shahri Sharqning ilm-ma'rifat markazi sifatida katta ahamiyat kasb etdi. IX-asrda bu shaharda "Bayt-ul-Hikma"-Sharqning fanlar akademiyasi tashkil etildi. Xuddi shunga monand X-asr oxirlarida Xorazmda ham podsho Ma'mun ibn Ma'mun davrida "Donishmandlar uyi" tashkil etildi. Bag'dod va Urganchdagi "Donishmandlar uyi"da o'z vaqtida nomlari dunyoga mashhur ulug' alloma va mutafakkirlar tahsil ko'rganlar¹. Ular orasida Ahmad Farg'oniy, Al Xorazmiy, Beruniy, ibn Sino, Abu Sahl Masihiy, ibn Iroq kabi ulug' va buyuk zodlarning nomlari bor. Muqaddasiyning so'zlariga qaraganda, Xorazm aholisi aql-zakovatli fiqh ilmini egallagan ma'rifatli kishilar bo'lganlar. Xorazmning bu davrdagi taraqqiyoti xususida arxeolog S.P.Tolstovning quyidagi xulosalari ham ibratlidir: "Bu davrlardagi Xorazmning iqtisodiy parvozini nazardan o'tkazar ekansan, bir vaqtlar feodal monarxiya bo'lgan bu davlat qiyofasining qoldiqlari ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi". IX-XII-asrlarda ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy va ma'daniy sohadagi taraqqiyot o'lkamizning Xorazm vohasidan tashqari boshqa hududlarigaxosdir. Buxoro, Samarqand, Kesh, Naxshab, G'azna, Panjikent, Binokent, Quva, Qabadiyon, Boykent va boshqa shaharlar savdo-tijorat, hunarmandchilik va madaniyat markazlari dong taratganlar. Somoniylar poytaxti Buxoro dunyada ikkinchi Makka hisoblangan. bn Sino tibbiyot, falakkiyot va boshqa turli fanlar sohasida ijod

¹ 1. Rajabov Alisher Shavkatovich. Mirbobo Nakshbandi as the great sufi scholar. International scientific and practical conference.

qilgan bo'lsa- da, tarix faniga ham alohida e'tibor qaratgan. U o'zidan oldin ijod qilgan kishilar asarlaridan foydalanib bir qancha asarlar yaratgan. Abu Rayhon Beruniy o'rta asrlarda Xorazmda tashkil etilgan Ma'mun akademiyasi porloq yulduzlaridan biri bo'lgan². U 973-yil 4-sentyabrda Kat shahri yaqinida tug'ilgan. Dastlabki ta'limni Urganchda olgan. Taqdir taqozosi bilan sharqning ko'pgina shaharlarida bo'lgan³. 1017-yil Mahmud G'aznaviy Xorazmni zab etgach, ko'plab olimlar qatorida Beruniy ham G'aznaga olib ketilgan va umrining oxirigacha shu yerda ijod qilgan⁴. Uning tarix ilmiga bag'ishlangan "O'tmish avlodlardan qolgan yodgorliklar V'Hindiston" kabi asarlari bizgacha yetib kelgan. "Hindiston" asarida Hindiston haqida eng nodir malumotlarni beradi. Beruniy bu asari uchun "birinchi hinddolog" unvoniga sazovor bo'lgan. Abu Bakr Narshaxiy Buxoro ahlidan bo'lib 899-959-yillarda yashab ijod qilgan. U haqida faqatgina Sam'oniyning "Kitob ul-Asab" asarida qisqacha ma'lumot berib o'tilgan. Undan bizga "Buxoro tarixi" asari qo'lyozmalari yetib kelgan. Hozirda Toshkent Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan bu qo'lyozma 1128-yilda Quva shahridan bo'lgan Abu Nasr Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr al Quboviy arab tilidan fors tiliga qisqartirib tarjima qilgan, nusxasi saqlanmoqda. Bu asar Buxoroning qadimgi davridan 1220-yilgacha bo'lgan davri haqida ma'lumot beradi. To'g'ri, Narshaxiy X-asrda yashab o'tgan bo'lsa-da, uning asarini fors tiliga tarjima qilgan olimlar 1220-yilgacha sodir bo'lgan eng muhim voqealarni kiritishgan⁵. Bu asar 1991-yilda "Kamalak" nashriyotida A.Rasulov tomonidan tayyorlanib chop etildi. Narshaxiy me'rosi xalqimizning ma'naviy boyligi sifatida avlodlarga xizmat qilmoqda. X-XI-asrlarda yashab tarix ilmiga hissa qo'shgan olimlardan ya'na Abul Hasan Bayhaqiydir⁶. Uning to'liq ismi Abulfayz Muhammad ibn Husayn al-Kotib Abul Hasan Bayhaqiy bo'lib, Nishopurda ta'lim olgan. Uning qalamiga mansub "Tarixi Oli Mahmud" (Mahmud xonadoni tarixi), "Jome ut-tavorix" (tarix to'plami) kabi asarlari ma'lum. Bu asarlarda buyuk tarixshunos olim G'aznaviylar sulolasi tarixini g'oyatda mohirona bir tarzda yoritib beradi⁷. Ayniqsa, bu borada 30 jilddan iborat bo'lgan "Jome ut-tavorix" diqqatga loyiqdir. Unda Bayhaqiy G'aznaviylar hukmdori Sabuqtegin (977-997) davridan keyingi qariyb 80 yillik tarixni bayon etadi. Asar 1962-yilda rus tilida matbuot yuzini ko'rgan. Ammo markazlashgan feodal turkiy davlatlardan biri

² .Rajabov Alisher Shavkatovich. Study of the manuscript of the work "Mirotus Solikiyn". / International scientific conference "The role of science and innovation in the modern world". London (United Kingdom)

³ Alisher Rajabov Shavkatovich. Mirbobo Naqshbandiy qalb zikri va uning turlari to'g'risida. / FarDU ilmiy xabarlar. 1-son. Farg'ona, 2023. – B. 16-19.

⁴ 4.Rajabov Alisher Shavkatovich. The work of "Mir'otus Solikiyn"

⁵ Rajabov Alisher Shavkatovich. About Bahouddin Naqshband in Mirbobo Naqshbandi's Poetry. / International journal of formal education. 2022. – P. 1-5.

⁶ Rajabov Alisher Shavkatovich. Abu Nasr Farobiy. / Journal of Innovations in Social Sciences Volume 2021-yil, 20-noyabr. – B. 97-102

⁷ Rajabov Alisher Shavkatovich. Abu Nasr Farobiy. / Journal of Innovations in Social Sciences Volume 2021-yil, 20-noyabr. – B. 97-102

hisoblangan G'aznaviylar sulolasi tarixiga bag'ishlangan Bayhaqiyning "Jome ut-tavorix" asari shu paytga qadar o'zbek tiliga tarjima qilinmagan. G'aznaviylar sulolasi davri tarixining eng mashhur bilimdonlaridan biri Abu Nasr ibn Abdul Jabbor al-Utbiydir. Tarixiy yozma manbalarda al-Utbiyning har tomonlama kamolotga yetgan ulug' bir shaxs, tarixchi, shoir va adib bo'lganligi ta'kidlanadi. Abu Nasr al-Utbiyning eng shox asari so'zsiz "Tarix al-Yaminiy" (Yaman ud-Davlatining tarixi)dir. Ubaydulla Uvatov bergan ma'lumotlariga qaraganda, asarga bunday nom berilishiga sabab "...G'azna sultoni Mahmud G'aznaviy mustaqil ravishda G'aznaviylar taxtida qaror topgach, 999-yilda Abbosiy xalifa Qodir Billoh unga Xurosonni idora qilish huquqi bilan birga Yamin ud-Davlat Amin ul-millat" (Davlat tayanchi va din homiysi) degan faxriy unvon in'om etilgan edi. Shuning uchun ham Utbiy o'z asarini Mahmud G'aznaviy tirikligida yozib, unga bag'ishlaydi va uning unvoni "Yamin"ga nisbat berib, qisqacha "Tarix al-Yaminiy" deb atagan. Bu asar muqaddima va 45 bobdan iborat. 783-850-yillarda yashab o'tgan qomusiy olim Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy tarix sohasida ham qalam tebratgan. Olimning "Kitob at-tarix" (Tarix kitobi) asari tarix faniga bag'ishlangan. Unda Xuroson, Kichik Osiyo va Movarounnahrning VHI-IX-asrlardagi tarixiga oid qisqa va aniq ma'lumotlar o'z ifodasini topgan. 2-masala Sharqning buyuk daho olimi Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh ibn al-Hasan ibn Ali ibn Sino Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'i yaqinida tug'ilgan. Turk yozuvchisi Ibrohim Ogoh Chubukchining ma'lumotiga qaraganda, asli turk bo'lgan ibn Sinoning otasi nihoyatda o'qimishli kishi edi. Ibn Sino ayniqsa, tibbiyot ilmiga alohida mehr qo'ygan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rajabov Alisher Shavkatovich. Mirbobo Nakshbandi as the great sufi scholar. International scientific and practical conference "Innovative Development in the global science". Boston (USA), 2022 – P. 18-22.
2. Rajabov Alisher Shavkatovich. Study of the manuscript of the work "Mirotus Solikiyn". / International scientific conference "The role of science and innovation in the modern world". London (United Kingdom)
3. Alisher Rajabov Shavkatovich. Mirbobo Naqshbandiy qalb zikri va uning turlari to'g'risida. / FarDU ilmiy xabarlar. 1-son. Farg'ona, 2023. – B. 16-19.
4. Rajabov Alisher Shavkatovich. The work of "Mir'otus Solikiyn" as a Theoretical Source of Naqshbandiya Tariqat. / Web of scholars: Multidimensional research journal. 1(8). 2022. – P. 18-21.
5. Rajabov Alisher Shavkatovich. About Bahouddin Naqshband in Mirbobo Naqshbandi's Poetry. / International journal of formal education. 2022. – P. 1-5.
6. Rajabov Alisher Shavkatovich. Abu Nasr Farobiy. / Journal of Innovations in Social Sciences Volume 2021-yil, 20-noyabr. – B. 97-102
7. Rajabov Alisher Shavkatovich, Elibayeva Feruza Xamzayevna. O'tkir qilich va qalam sohibi : Bobur merosi jahon olimlari nigohida.